

20-May, 2025-yil

**YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH JARAYONIDA
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR NING O'RNI**

FarDU “Pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Zakirova Dilfuza Saydolimovna

TDPU, “Ingliz tili nazariyasi va o‘qitish metodikasi”

kafedrasi o‘qituvchisi

Nishonova Sayyora Saidovna

Globallashuv va raqamli transformatsiya davrida yoshlarning milliy qadriyatlar, tarix va madaniyatga bo‘lgan hissiy aloqasini, ma’naviy iftixorini vatanparvarlik ruhida shakllantirish uchun zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish zarur. Bugungi kunda ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish nafaqat bilim olish jarayonini soddalashtiradi, balki talaba-yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga ham katta yordam beradi. Texnologik taraqqiyot bilan birga kelgan imkoniyatlar ta’limni yanada ilg‘or va samarali tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy ta’lim platformalari, vebinalar, onlayn kurslar, virtual muzeylar va ta’limiy videolar, ko‘p funksiyali mobil dasturlar, interaktiv o‘qitish usullari, internet va multimedia texnologiyalari yoshlar bilan ishlashda muhim instrumentlarga aylanmoqda. Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonida ijodkorlik va samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib, ularni faol, jamiyatga mas’ul fuqarolarga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar orqali tashkil etiladigan loyihibar, forumlar va virtual konferensiyalar talabalar o‘rtasida jamoaviy ishslash va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning rolini inobatga olgan holda, ta’lim jarayonini takomillashtirish va talabalarni faol ishtirokchilarga aylantirish maqsadida amaliy tadqiqotlar olib borish zarur. Zero, bugungi ta’limda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishning asosiy usullari, strategiyalariga doir imkoniyatlarning tahlili va ularni ta’limga joriy etilishi dolzarb masalalardan sanaladi.

Asosiy qism. Ta’lim tizimida zamonaviy texnologik modellarni joriy etish, milliy qadriyatlar, ota-onalar va jamoatchilik integratsiyalashuvi, interaktiv ta’lim va ma’naviy tarbiya uyg‘unligi, xamda inson mobilligini yaratish, o‘z navbatida, talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur omillar talaba-yoshlarda ijodkorlikni oshiradi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari orasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interaktiv o‘qitish metodlari, mobil qurilmalar va internet platformalari, veb-texnologiyalar va mass-media alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunday texnologiyalarning foydalanimishi, yoshlarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini mustahkamlash va ularni jamiyatga faol integratsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu usullar orqali talaba yoshlarlarning

20-May, 2025-yil

qiziqishini uyg‘otish va ularni mustaqil ishlashga rag‘batlantirish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar asosida Vatanparvarlik tushunchasini yoshlar ongiga singdirish maqsadida turli interaktiv usullardan foydalanish ta‘lim tizimida yetaricha yutuq va kamchiliklariga ega aslida. Bu esa, o‘z navbatida, kuchaytirilgan o‘qitish metodlari asosida sun‘iy intellektning mashinaviy o‘qitish turlarini namoyon etadi. Zamonaviy sivilizatsiya vaqtida nazoratli, nazoratsiz va kuchaytirilgan o‘qitish turlari yoshlarda yangi avlod savodxonligi uchun keljak poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Har bir zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan yetuk kadrlar o‘z ma‘suliyatlarini his etgan holda shaxsga moslashtirilgan muhit va yondashuv asosida sifatlari o‘qitish metodlarini ishlab chiqa oladi. Bunda zamonaviy texnologiyalardan to‘g‘ri va unumli foydalanish qonun qoidalarini, avvalo, o‘zida va yoshlar orasida tadbiq eta olishi lozim.

Vatanparvarlik tadbirlarini o‘tkazishda foydalanish mumkin bo‘lgan vositalarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: multimedia va onlayn platformalar – tadbirdarda axborotning turli xil ko‘rinishlari: rangli tasvirlar va grafika, matn va grafikda dinamik hamda harakatli effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek, mavzuli videokliplar hamda videofilmlardan foydalanish; multimediyali prezентatsiyalar orqali talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb etish, ularning qiziqishini oshirish va bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam berish. Google Classroom, Kahoot, Edmodo, Zoom, Moodle, Nearpod, Quizlet kabi platformalar aynan talaba yoshlarda o‘z bilimlarini tekshirish, ta‘lim olishning samaradorligini oshirish, o‘quvchilar faolligi va diqqatini jalb qilish, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlikni o‘rinli tashkil qilish, masofaviy ta‘lim sifatini oshirish, turli resurslardan to‘g‘ri va unumli foydalanish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Interaktiv doska va o‘yinlar – bu kompyuter yoki boshqa manbadagi tasvirlarni proyektor orqali namoyish etadigan sensorli ekran hisoblanadi. Maxsus dasturiy ta‘minotga ega bo‘lgan matn, rasm, video va audio ma’lumotlar tushirish imkonini beradi. Strategik o‘yinlar, simulyatsiyalar talabalarda muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, strategik fikrlash va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlaniradi. Bu ko‘nikmalar vatanparvarlik faoliyatida ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning mudofaa salohiyatini kuchaytirishga bag‘ishlangan simulyatsiya o‘yini yoki tarixiy janglarni qayta yaratuvchi strategik o‘yinlar buning yaqqol misolidir.

Xulosaqilib aytganda zamonaviy texnologiyalarning ta‘limdagи tadqiqot va amaliyotdagi joriy etilishi, talaba-yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning muhim omili bo‘lib, ularni faol va jamiyatga mas’ul fuqarolarga aylantirish borasida muhim ahamiyatga egadir. Vatanparvarlikni ta‘lim dasturlariga integratsiya qilish, yoshlarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini mustahkamlash, texnologik innovatsiyalarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar, ularning samarali joriy qilinishi va rivojlanishini so‘zsiz murakkablashtiradi. Ushbu qiyinchiliklarni hal qilish uchun kompleks yondashuvlar, malakali kadrlar, infratuzilma va ijtimoiy munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Muvaffaqiyatli innovatsiyalar jamiyatda, iqtisodda va ta‘limda muhim o‘zgarishlarni ta‘minlab, fuqarolarning hayotini yaxshilashga yordam beradi va interaktivlik, realizm va

20-May, 2025-yil

emotsional ta'sir orqali talabalarning ona Vatanga bo'lgan muhabbatini va javobgarligini mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son «O‘zbekiston – 2030» strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 26-avgustdagi PQ-451-son «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida» Qarori.
3. Komolov S., Rahmatov Sh. Sun‘iy intellekt asoslari. - T., 2022.
4. Allomov A. Texnologik internet platformalar va yoshlar. - T.: O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, 2020.
5. Yulo Vooglyad. Vatandoshlik dasturi. - T., 2023.